



Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrası mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

SOG‘LIQNI SAQLASHDA TIBBIY XIZMAT TURLARI VA ULARNI BOSHQARISH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING ISTIQBOLLARI
Ro‘zimatov F.I., Qurbonmurodova N.Z.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Annotatsiya: Bugungi har tomonlama rivojlanib kelayotgan sog‘liqni saqlashda tibbiy xizmat turlari va ularni qay tartibda boshqarish tizimini raqamlashtirish istiqbollari juda muhim hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: raqamlashtirish, transformatsiya, sun‘iy intellekt, telemeditsina, 3D-bioprinting, statsionar.

Kirish: Zamonaviy yashab kelyotgan davrimizda sog‘liqni saqlash sohasida raqamli transformatsiya keng qamrovli o‘zgarishlarni olib kelmoqda. Bu raqamlashtirish nafaqat tibbiy xizmatlarning sifatini oshirish, balki ularning qulayligi va samaradorligini yaxshilash uchun keng imkoniyat beradi. Ushbu maqolada sog‘liqni saqlash tizimidagi tibbiy xizmat turlari, ularni boshqarish tizimlari va raqamlashtirishning istiqbollari muhokama qilinadi.

Asosiy qism: Birlamchi tibbiy xizmat - bu sog‘liqni saqlash tizimining asosi bo‘lib, aholiga eng yaqin bo‘lgan xizmat ko‘rsatish darajasi hisoblanadi.. Ushbu xizmat turi profilaktik ko‘rikdan o‘tkazish va kasalliklarning oldini olish; umumiy amaliyot shifokorlari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar; sun‘iy intellekt asosidagi klinik qarorlar tizimi, dorilar bilan davolash va bemorlarni kuzatish; salomatlikni saqlash bo‘yicha maslahatlarni o‘z ichiga oladi. Tibbiy xizmatlar o‘z mohiyatiga ko‘ra bir necha asosiy toifalarga ajratiladi: Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami (BTSY). Bu sog‘liqni saqlash tizimining “birinchi liniyasi” bo‘lgan, oilaviy shifokorlar, poliklinikalar orqali aholiga bevosita xizmat ko‘rsatadi. Ushbu bosqichda profilaktik ko‘riklar, dastlabki tashxis, emlash, oddiy kasalliklarni davolash hamda sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha maslahatlar amalga oshiriladi. O‘z navbatida bir nechta ahamiyat kasb etadi: bu kasalliklarni erta aniqlash holati, og‘ir bosqichlarga o‘tishining oldini olish va qolaversa, sog‘liqni saqlash xarajatlarini kamaytirishdir. Keyingi asosiy toifalaridan biri- ixtisoslashgan tibbiy yordam demakdir. Bu orqali tor yo‘nalishlardagi o‘ta murakkab bo‘lgan kasalliklarni aniqlash va davolashni o‘z ichiga oladi (bu turga jarrohlik, kardiologiya, onkologiya va travmatologiya-ortapediya). Buni oliy ma‘lumotli tajribaga ega, mutaxassis shifokorlar va yuqori texnologiyali diagnostika uskunalari bilan ta‘minlangan klinikalarda amalga oshirishadi. Buning asosiy afzalligi- aniqlangan kasallikni chuqur o‘rganish, individual davolash rejasi tuzish hisoblanadi. Stasionar yordam-bemorni kasalxonaga yotqizib, jarrohlik operatsiyalari, reanimatsiya, uzoq muddatli davolash va parvarish xizmatlari ko‘rsatish jarayonlari orqali bevosita bog‘langan. U hayot uchun xavfli holatlarda yordam beradi va bemorni to‘liq tiklash imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Bu tasniflar nafaqat tibbiy xizmatlarning qamrovini, balki ularning o‘zaro bog‘liqligini ham ko‘rsatadi deb ayta olamiz. Birlamchi yordam erta tashxis qo‘yadi, ixtisoslashgan yordam chuqur davolashni amalga oshiradi, rehabilitatsiya esa to‘liq sog‘ayishga hissa qo‘shishini anglatadi. Sog‘liqni saqlashni samarali boshqarish – resurslar, kadrlar va moliyaviy mablag‘lardan oqilona foydalanish va xizmatlarning sifatini oshirish demakdir. Raqamlashtirish – bu faqat texnologik yangilik emas, balki boshqaruv madaniyatini yangi bosqichga ko‘tarish hisoblanadi. Asosiy yo‘nalishlarga quyidagilar kiradi: elektron tibbiy karta bemor tarixi yagona bazada, shifokorlar o‘rtasida real vaqt rejimida ma‘lumot almashishimiz mumkin bo‘ladi. Telemeditsina-masofaviy konsultatsiyalar, onlayn tashxis, ayniqsa chekka hududlar uchun qulay deb ayta olamiz, negaki ular shahar markazlariga kelish o‘rniga vaqti va pulini teya oladi. Yana bir yo‘nalishi elektron retsept tizimidir, bu dorilarni nazorat ostida yozish, farmatsevtik hisob-kitoblarni shaffof qilish qulayligini beradi. Umuman olganda har bir sohaga kiritilgan innovatsiya faqat va faqat qulaylik yarata oladi, ba‘zan istisnalar ham uchrab turishi mumkin.

Raqamlashtirishning istiqbollari juda ham bisyordir. Har bir insonlarga yordam yo‘lini topsak, vaqtimiz va energiyamizni shuncha tejab qolgan bo‘lamiz. Kelajakda sog‘liqni saqlashni



Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasi mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

raqamlashtirish quyidagi natijalarni berishini ko‘rishimiz mumkin: milliy elektron sog‘liqni saqlash platformasi: barcha shifoxonalar yagona ma’lumotlar bazasida ishlaydi, bu esa juda qulay usul. Mobil ilovalar orqali esa shaxsiy sog‘liq kundaligi, dori qabul qilish eslatmalari, onlayn konsultatsiya olish imkoniyati ham mavjud bo‘ladi. 3D-bioprinting va raqamli diagnostikalar ham aholi uchun samarali deb ayta oamiz, chunki unda sun‘iy organlar yaratish, raqamli natijalar asosida aniq tashxis qo‘yish mumkin va bemor ma’lumotlarini ruxsatsiz kirishdan himoyalashimiz ham mavjuddir.

Sog‘liqni saqlash tizimini zamonaviylashtirish – bu davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Tibbiy xizmatlarni to‘g‘ri tasniflash va boshqarish, ularni raqamlashtirish orqali sog‘liqni saqlash tizimi shaffof, samarali va adolatli bo‘ladi. Bemorlar uchun qulaylik oshadi, shifokorlarning ortiqcha yuklamasi kamayadi, resurslar tejab-tergab ishlatiladi. Kelajakda sun‘iy intellekt, IT va raqamli platformalar yordamida har bir inson uchun individual tibbiy xizmatlar yo‘lga qo‘yilishi, profilaktika tibbiyoti kuchayishi va umuman olganda aholining sog‘lom umr ko‘rish darajasi oshishi kutilmoqda. Bularning hammasida agona maqsad Profilaktika samaradorligini oshirish va xatoliklarni kamaytirish, nojo‘ya holatlarni oldini olishdir. Shu bilan birga, tizimni raqamlashtirishda axborot xavfsizligi, ma’lumotlarni maxfiy saqlash, shifokor va farmatsevtlarning raqamli savodxonligini oshirish kabi muammolar bosqichma-bosqich hal qilinishi zarur.

XULOSA: Sog‘liqni saqlashda tibbiy xizmatlarni raqamlashtirish tizimi nafaqat texnologik yangilik, balki boshqaruv falsafasini tubdan o‘zgartiruvchi omildir. O‘zbekiston uchun raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish, ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash, shifokor va farmatsevtlarning raqamli savodxonligini oshirish, hamda IT-startaplar bilan hamkorlikda mahalliy dasturiy mahsulotlar yaratish muhim ahamiyatga ega. Shu orqali sog‘liqni saqlash tizimi global standartlarga moslashib, aholiga yuqori sifatli, qulay va shaffof tibbiy xizmatlar taqdim etilishi

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. M.A.Azimova “Umumiy gigiyena va Ekologiya” Toshkent -2016
2. <https://lex.uz/docs/-6719038>
3. <https://lex.uz/ru/docs/-7723519?otherlang=>
4. M.Abduvaliyeva “Jamiyat sog‘liqni saqlash va tibbiy statistika” Toshkent-2022